

MAKTABGACHA TA'LIMNING YOSHLAR HAYOTIDAGI AHAMIYATI**O'zbekiston davlat san'at va madaniyta instituti
Xalq ijodiyoti fakulteti madaniyat va san'at muassasalarini tashkil
etish hamda boshqarish ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi Ikromova Madina**

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan yagona davlat siyosati, bu borada erishilgan yutuqlar, hamda soha oldida turgan, o'z yechimini kutayotgan masalalar borasida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Yusuf Xos Hojib, Bola tarbiyasi, Lesgaft, MTT

Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash jamiyat oldidagi eng dolzarb masala sifatida qaralib, xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni yetuklikka yetaklash yo'llari, qonunlarini izlaganlar. Ajdodlarimiz azaladan bola tarbiyasiga alohida e'tibor qaratganlar. Insonni ma'naviy yetuklikka yetkazish yuksak xulq-odob, ilm-fanni egallash asosidagina amalga oshirilishi mumkinligini ta'kidlaganlar. Buning uchun esa asosiy e'tiborni bola tarbiyasi va ta'limiga qaratishimiz lozim. Shaxsning kamolotga yetishida, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lim –tarbiya kata ahamiyatga ega, albatta. Shaxsning kelajakda qanday inson bo'lishi u ulg'aygan jamiyatdagi qonun-qoidalar, insonlar va oilaviy muhitga bog'liq. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida “Odamzod naslining ulug'ligi bilimdan. U aql-idrok tufayli ne-ne tugunlarni yechishga qodir. O'quv-idrok va bilim egasi bo'lgan har qanday odam sharaflidir”, -deyiladi. Darhaqiqat, bilim insonni yetuklikka olib boruvchi eng go'zal yo'ldir. Bejizga xalqimiz “Beshikdan to qabrgacha, ilm izla”, -deb aytmagan.

Hozirgi kunda bolalar maktabdan oldingi asosiy ta'limni bog'chalardan olishadi. Bolalarning maktabda o'qishga bo'lgan qiziqishi qaysidir ma'noda bog'chalardagi ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Mutaxassislar fikricha, bola hayoti davomidagi asosiy bilimning 50 foizdan ortig'ini besh yoshgacha olar ekan. Bundan ko'rinib turibdiki, bog'chalardagi ta'lim yosh avlodning kelajagini belgilab beradi. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev maktabgacha ta'lim sohasida qator islohotlarni amalga oshirdi.

Jumladan, Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarori qabul qilindi. Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Bog'cha yoshdagi bolalarda ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning xarakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatning asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi. Shu bois bolani besh yoshgacha bo'lgan davrida uning har bir harakatiga, intilishlariga, qiziqadigan narsalariga e'tiborli bo'lish talab etiladi. Ming afsuski, hozirda ba'zi bir "bog'chalar"da bunday narsalarga e'tibor juda sust darajada. Bog'chadagi xodimlar faqatgina rahbariyat "ko'z"i uchun ishlashmoqda. Ularga bolalarning kelajak hayoti umuman qiziq emas.

Bu esa juda achinarli holat. Ular nafaqat, bir inson kelajagi, balki millat kelajagini ham "o'yin" qilishmoqda. Albatta, bunday holatlar tegishli muassasalar tomonidan nazoratga olinadi. Maktabgacha ta'lim agentligi 2023-yil 26-dekabr kuni ayrim "Tadbirkorlar" diqqatiga ushbu xabarni rasmiy saytiga joyladi: "Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish axborot tizimiga kelayotgan elektron ma'lumotlar tahlil qilinganda, ayrim DXSH asosida MTTlar, o'rtada turuvchi shaxslar yordamidan foydalanib, 2023-yil sentabr, oktabr va noyabr oylarida begona maxsus dasturiy yoki apparat vositalaridan foydalanilgan holda: -o'zi joylashgan manzil ma'lumotlarini sun'iy o'zgartirish; -kompyuterlarda virtual mobil qurilmani yaratish orqali haqiqatda MTTga kelmagan tarbiyalanuvchilar va xodimlarning davomatini soxtalashtirib, NMTTBATga bila turib, tarbiyalanuvchilar va xodimlar davomati to'g'risida soxtalashtirgan yolg'on axbototni kiritish harakatlari aniqlanmoqda." Bu holatlar bo'yicha tegishli tadbirkorlarga ogohlantirish xatlari berilmoqda va subsidiya to'lovlari to'xtatilmoqda.

2023-yil 15-dekabr - UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari vazifasini bajaruvchi Alberto Biankoli va Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari, Maktabgacha ta'lim agentligi direktori Agrippina Shin Islom taraqqiyot banki tomonidan qo'llab-quvvatlangan "O'zbekiston Respublikasida sifatli maktabgacha ta'limdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish" loyihasini amalga oshirish to'g'risidagi shartnomani imzoladilar.

Loyihaning maqsadi maktabgacha ta'lim sifatini oshirish va O'zbekistondagi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat.

Hamkor tashkilotlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari, jumladan mamlakatning chekka hududlaridagi ta'lim-tarbiya muhitini sifat jihatidan yaxshilash bo'yicha birgalikda ish olib boradilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turli modellarini joriy etish bo'yicha O'zbekistondagi muvaffaqiyatli tajribaga asoslanib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining milliy tarmog'ini kengaytirish rejalashtirilmog'ida. Jumladan, ushbu tadbirlarni xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash nazarda tutiladi. Olis hududlarda suv ta'minoti, sanitariya-gigiyena ob'ektlarining sifati va xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. UNICEF va Maktabgacha ta'limi Agentligi Islom taraqqiyot banking ushbu loyihaga kiritgan yangi sarmoyasini yuqori baholaydi. Bu O'zbekistonning 2030-yilga borib maktabgacha ta'limning universal qamroviga erishishga qaratilgan strategiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Insonni ma'naviy qayta ishlab chiqarish, shaxsni yaratish - jamiyatdagi o'qituvchining maqsadi. Bu o'qituvchining eng muhim ijtimoiy funksiyasidir.

O'qituvchi, maktabgacha tarbiya o'qituvchisi, universitet o'qituvchisi va boshqalar ijtimoiy ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydi. Lekin ular insonning barcha moddiy va ma'naviy qadriyatlarining yaratuvchisi va jamiyatning asosiy ma'naviy qadriyati sifatida shakllanishiga ko'maklashish orqali jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, yosh avlodni dunyoning barcha yutuqlari bilan tanishtiradi, madaniyat va shu orqali insoniyatning keyingi taraqqiyoti uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Biroq, jamiyatning ilg'or rivojlanishiga chinakam hissa qo'shishi uchun o'qituvchilar ham o'zlari faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim tizimi (maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, kollejlari va h.k.)ga e'tiborini qaratishi kerak. Bugungi kunda bolalar bog'chasiga boradigan bolalar va maktab o'quvchilari bir necha yillardan keyin mustaqil hayotga kirishadilar. O'quv-tarbiyaviy ish mazmunini o'zlashtirgan maktab o'quvchisi endi o'zining mustaqil kasbiy faoliyati haqida o'ylay boshlaydi. Bu holatga yoshlarimiz qanchalik tayyor? Zamonaviy o'qituvchining vazifasi talabalarga zamonaviy jamiyatning o'zgaruvchan ijtimoiy-madaniy holatiga moslashishga yordam berish, ularni qonunlarga muvofiq yashashga o'rgatishdir. Tug'ilgandan maktabga kirishgacha bo'lgan davr barcha keyingi hayot bosqichlaridan farq qiladi, chunki u umumiy rivojlanishni ta'minlaydi, bu keyinchalik har qanday maxsus bilim va ko'nikmalarni egallash va turli xil faoliyat turlarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bolaning asosiy "o'zlashtirishi" shundan iboratki, maktabgacha yoshda u keyinchalik qaysi o'rinni

egallashidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan jismoniy va ruhiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxsga aylanadi. Bunday fazilatlarga asosiy harakatlarni o'zlashtirish, dunyoni ongli ravishda idrok etish, fikrlash, boshqa odamlar bilan muloqot qilish, o'z xatti-harakatlarini boshqarish va boshqalar kiradi. Inson shaxsini shakllantirish jarayonida maktabgacha yoshdagi rivojlanish davrining asosiy roli tarbiyachiga qo'yiladigan tegishli talablarni belgilaydi. Avvalo, bu bolaning baxtli bolaligi, uning taqdiri uchun eng katta mas'uliyatni anglash zarurati. Biroq, o'qituvchining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun maktabgacha yoshdagi bolalikning doimiy qiymatini tushunishning o'zi yetarli emas, shuningdek, bolaning rivojlanish qonuniyatlarini bilish ham talab qilinadi. Qonunlardan biri bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishining atrof-muhitga bog'liqligi, uning kattalarsiz yashashining mumkin emasligi. Ijtimoiy muhit ham shaxsni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Shaxs muayyan ijtimoiy jamiyat mahsulidir. Shaxsning hayotiy faoliyatida ijtimoiy muhit unga ijobiy ,yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijtimoiy jamiyat shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. Bu o'z navbatida jamiyatning ma'naviy qiyofasi, munosabatlar, ta'sit etuvchi vositalar darajasiga bog'liq. Oila muhiti- bola tarbiyasida o'ziga xos muhim tarbiyaviy ta'sirga ega. Shu bois, mustaqillikka erishilgandan so'ng o'tgan davr mobaynida oila muhitining shaxs komolatida tutgan o'rni va ahamiyati masalalari chuqur tahlil etilmoqda. Avlodni tarbiyalash insoniyatning xizmatidir. Qachonki biz yaxshi axloq egasi bo'lgan farzandlarni tarbiyalasak, shundagina bo'yimizdagi bu xizmat majburiyati soqit bo'ladi. Kimki, badaxloq bolalarni tarbiyalasa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi. Jamiyat ularning farzandlaridan bezir bo'ladi. Xush va yaxshi axloqqa ega bo'lgan farzand, xushaxloq iymon sohibi bo'lgan ota –onadan bo'ladi, agarda ota-ona axloqsiz bo'lsalar, ularning tarbiyalari soyasida o'sgan farzand ham badaxloq bo'ladi. Xulosa qilib aytganda ,biz farzandlarimizni tug'ilganidan yaxshi oilaviy muhitda ulg'aytirishga, ularni o'qishini doimiy nazorat qilishga, ularga tarbiyani to'g'ri yo'nalishda berishga va uni jamiyatda muhim bir o'rin egallashiga harakat qilishimiz lozim. Zero, yoshlar kelajak poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. С.А.КОЗЛОВА, Т.А.КУЛИКОВА ДОШКОЛЬНАЯ ПЕДАГОГИКА
2. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig"
3. Fitrat "Oila" haqida kitob
4. <https://mpe.uz/post-detail/posts/news/2736>
5. <https://Lex.uz>
6. <https://lex.uz/acts/-3362881>